

XITOIY XALQ RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARINING ZAMONAVIY O'SISH TENDENSIYALARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352507>

RAJABOV Ravshanbek

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

Abstract. The economy of China today is one of the most powerful and fastest growing in the world, which has a beneficial effect on the level of salaries in the country.

Аннотация. Экономика Китая сегодня является одной из самых мощных и быстрорастущих в мире, что благотворно сказывается на уровне заработной платы в стране.

Annotatsiuya. Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasining iqtisodiyoti dunyodagi eng kuchli va eng tez rivojlanayotgan davlatlardan biri bo'lib, bu mamlakatdagi ish haqi darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, aholi daromadlarini va turmush darajasini o'lchashning ko'plab usullari mavjud bo'lib, hozirgi davrda Xitoy Xalq Respublikasidagi o'rtacha ish haqi 900 AQSH dollarini tashkil etmoqda. Xitoyning 32 ta yirik shaharlaridagi o'rtacha oylik ish haqi 2015 – yilning qish mavsumida internetda e'lon qilingan bo'sh ish o'rinlari uchun 6,070 yuanni (922,64 AQSH dollari), Pekinda esa, 9227 yuanni tashkil qiladi. Shanxayda (8664 yuan va Shenzhenda (7288 yuan)¹. Xanjouda esa, (7097 yuanni) tashkil etadi.²

Xitoyda xususiy soha sektoridagi ish haqi biroz yoqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Konsalting yoki professional xizmat ko'rsatish sohalari, shu jumladan, buhgalteriya, yuristprudensiyaning o'rtacha ish haqi 10,634 yuan bilan, investitsiya sanoati ikkinchi o'rinda (9204 yuan) va vositachilik agentligi uchinchi o'rinni egallaydi (98,658 yuan). Xususiy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan xususiy korxonalar 7,322 yuanning eng raqobatbardosh ish haqini beradi³. Xitoylik ish beruvchilarning 60% oylik ish haqini 6 %dan ortiqqa oshirishni rejalashtirmoqda.

Xitoyda eng yuqori oylik Shanxayda belgilangan (2300 yuan), eng kamish haqi esa, Guansi (1000 dan 14000 yuangacha) Xitoy Xalq Respublikasi 2014-yilda 19 ta regionda eng kam ish haqini ko'targan. 2015 –yilda esa 27 ta, 2016 –yilda 9 ta. 2017 -yilga kelib, 11 ta provinsiyada ko'tarildi.

Hozirda mamlakatda eng kam ish haqi 9% ga ko'tarilgan. Shanxay (2300), Shenchjen(2130), Tyantszin(2050), Tzyansu (1890), Shensi (1680). 2017-yil ECA (Economic commission of Africa) ma'lumotlariga ko'ra o'rtacha o'sish 4,7 % tashkil etadi. Xitoyda o'rtacha oylik ish haqi 2017-yilda 7%.ga kotarilib, unda yillik ish haqi - 67 569 yuanni (10200 AQSH dollar) yoki oyiga 5630 yuanni (850 dollar) tashkil etdi. Aholi ko'p istiqomat qiladigan yirik shaharlarda o'rtacha oylik 7665 yuanni (1155 AQSH dollar) Eng yuqori ish haqi esa, - bu Pekinda bo'lib, u yerda ishchilar 9940 yuan ish haqi (1500 AQSH dollar) oladilar. Shenchjenda 8890 yuan (1340 dollar) va Guanchjou

¹China income //https://www.zhaopin.com/

²China income //http://www.chinadaily.com.cn/

³O'shajoyda.

7995 yuan (1175 dollar) dan to'g'ri keladi⁴. XXRda turli sohalar bo'yicha, belgilangan o'rtacha yillik iah haqini biz quyidagi 1.-jadvalidan kuzatamiz.

Jadval 1.

Xitoyda turli sohalar bo'yicha belgilangan o'rtacha yillik ish haqi⁵

Sohalar	Yuanda	AQSH dollarida
Moliyaviy soha	114 777	17 325
Informatsion-texnologiya	112042	16910
Ilmiy-texnikaviy soha	89 410	13 495
Elektroenergiya, gaz konditsioner yetkazib berish	78 886	11 905
Madaniyat ,sport	72 764	10 985
Lizing va biznes xizmatlari	72 489	10 940
Sog'likni saqlash va ijtimoiy ish	71 624	10 810
Logistika	68 822	10 385
Ta'lim	66 323	10 050
Administrativ xizmatlar	62 323	9 405
Tabiiy boyliklarni qazib olish	59 494	8 980
Ishlab chiqarish	55 324	8 350
Qurilish	48 886	7 380
Yashash va ovqatlanish	40 806	6 160
Suvsozlik	43 528	6 570
Baliqchilik	31 947	4 820

Xitoyda har bir kishi boshiga shaxsiy daromadlar 2017 yilda 2016-yildagi 33616,25 yuandan, 36396,19 yuanga oshdi. Shuningdek, kishi boshiga shaxsiy daromad 1978 yildan 2017 yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida o'rtacha 9.422.49 yuanni tashkil qilib, 2017 yilda rekord darajaga 36.396,19 yuanga yetdi (1978 yilda esa, bu ko'rsatkich rekord darajada 343,40 yuanga teng bo'lgan).

Yildan yilga Xitoyning dunyodagi ham iqtisodiy, ham siyosiy ahamiyati oshib bormoqda. Butun jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining cho'zilib ketishi ham, Yevropa va AQSH ning dunyo iqtisodiyotidagi o'rniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ommaviy axborot vositalari va jahonning ko'plab ilmiy nashrlarida, oxirgi paytlarda, Xitoy iqtisodiyoti va uning jahondagi o'rnini haqida ko'plab maqolalar chop etilmoqda. Ularning ayrimlari Yevropa Ittifoqi, AQSH, Yaponiya kabi mamlakatlarning tashqi qarzlari ko'payib ketganligi va hanuzgacha davom etib kelayotgan moliyaviy inqiroz sharoitida, yaqin vaqtda, Xitoyning jahon iqtisodiyotida yetakchilik qilishini bashorat qilsalar, ayrimlari, Xitoyning jahon xo'jaligida yetakchilik qilishiga bir qancha to'siqlar borligini va bu hodisa yaqin yillarda ro'y bermasligini ta'kidlaydi.

Xitoy iqtisodiyoti hozirgi davrdagiek o'z iqtisodiy o'sish sur'atlarini shu zailda ushlab tura olsa, u dunyodagi birinchi raqamli iqtisodiyot hisoblanmish AQSHni ham tez orada quvib o'tishi va dunyoda iqtisodiy yetakchi davlat sifatida nomoyon bo'lishi ham mumkin degan fikrga ko'pchilik iqtisodchilar qo'shiladilar.

Lekin, Xitoy iqtisodiyoti rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tadqiq qilar ekanmiz, bu fikr unchalik ham to'g'ri emasligiga ishonch hosil qilamiz. Chunki, zamonaviy jahon xo'jaligi tizimida, ayrim davlatlar emas, balki, iqtisodiy integratsion tashkilotlarning ahamiyati oshib

⁴Жизнь в Китае // <http://emigranto.ru/strany-azii/kitai/zhizn-v-kitae.html/>

⁵Минимальная и средняя зарплата в Китае // <http://visasam.ru/emigration/asia/uroven-zhizni-v-kitae.html>

borayotganligiga guvoh bo`lamiz. Bundan tashqari, Xitoy iqtisodiyotining jadal sur`atlarda o`shini ta`minlab bergan omillar ham, bu xo`jalik tizimida hali anchagina kamchiliklar va yechimi topilmagan muammolar borligini ko`rsatadi.

1978-yil aprel oyi plenumidan keyin, Den Syaopin boshchiligida olib borilgan iqtisodiy islohotlar va “Ochiq eshiklar” siyosati iqtisodiyot rivojlanishida tub burilishlarni yasadi. O`tgan yillar davomida, yo`l qo`yilgan xato va kamchiliklardan saboq olinib, bilim va tajribalarga asoslangan holda, hamda iqtisodiy islohotlar olib borilishi natijasida, Xitoy so`nggi 10 yilliklarda barqaror iqtisodiy o`shishga erishdi. Xitoy o`zining rivojlanish yo`lini tanlashda g`arb mamlakatlari, Sobiq Ittifoq, Yaponiya, Tayvan va Janubiy Koreya davlatlarining rivojlanish modellariga asoslandi. Mamlakat aholisining ko`pligi, uning madaniy, ilmiy-texnikaviy darajasining pastligi, ekin ekish maydonining qisqarib borishi, chuchuk suv va energiya resurslarining taqchilligi hamda tabiiy muhitning ifloslanishi kabi muammolar iqtisodiy rivojlanishda bir qancha iqtisodiy qiyinchiliklarga olib keldi.

Syangan (Gonkong) va Aomen (Makao) larning “alohida ma`muriy rayon” sifatida, Xitoy hududiga qaytarilishi, mamlakat davlat tuzimini biroz o`zgartirilishga yuz tutdi, ya`ni totalitar davlatdan demokratik davlat qurish sari qadam qo`yildi. Hozirda Xitoy iqtisodiyoti dunyodagi eng yirik iqtisodlardan biri bo`libgina qolmasdan, balki, eng yirik iste`molchiga ham aylanmoqda.

2016-yilda Xitoyda uy xo`jaliklarining yakuniy iste`mol xarajatlari va boshqalar Yalpi ichki mahsulotning 39,01% ni tashkil etdi. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tomonidan chop etilgan “Xitoyda ish haqi hisoboti” ga ko`ra, 1988-yilda eng yuqori va eng past ish haqi sohasidagi daromad darajasi 1,58 edi. Shundan so`ng, u doimiy ravishda oshib boradi va 2005-yilda 4.88 ga yetadi. 2005-yildan keyin, bu nisbat biroz pasayib ketadi, ammo, 2010 yilda bu ko`rsatkich 4,66ga yetadi, ammo 2011-yilda u yana biroz pasayishga o`tadi, ya`ni, 4,48, 2012 yilda esa, 4,3 ni tashkil etadi. 2012-yil ma`lumotlariga ko`ra, ish haqining eng yuqori bo`lgan sohasi - moliya sektori, eng past maoshli soha - qishloq xo`jaligi - baliqchilik, o`rmonchilik va chorvachilik deb tan olindi⁶

Xitoy iqtisodiyotidagi mavjud davlat ishtirokidagi yirik korporatsiyalar ham iqtisodiy o`shishning omillaridan biri sifatida nomoyon bo`lgan. Bu korporatsiyalar tomonidan ko`rilgan foydaning katta qismi ko`pincha davlatga tegishli bo`ladi va bu foydalar davlat tomonidan ma`muriy va kredit dastaklari yordamida nazorat qilinadigan yirik loyihalarga jalb qilinadi. Bu loyihalarning aksariyat qismi, foydali hisoblanishiga qaramay, ko`pincha ular boshqa iqtisodiy jihatdan o`zini oqlamaydigan loyihalar bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

2000-yilda birinchi marotaba Xitoyning yuqori organlari yig`ilishida mamlakatni federativ davlatga aylantirish masalasi muhokama qilindi va Butun Xitoy Xalq Vakillari Kengashi doirasida bu jarayon hozirgi kungacha davom ettirilmoqda.

Xitoy Kommunistik partiyasining Markaziy qo`mitasi bosh kotibi Si Tszinpin tomonidan 2017- yilning 1-iyulida KPKning 95-yilligiga bag`ishlangan yubiley yig`ilishida XKP xalqni qadrlashi, xalqqa xizmat qilishi va ularning manfaatlarini himoya qilishi, shu bilan birga, “bepoyon kuch manbai”ni qo`llab-quvvatlashi kerak deyildi. Si Tszinpin shuningdek, aholining farovonligini oshirish va qashshoqlikka qarshi kurashda g`olib bo`lish zarurligini ta`kidladi. Undan tashqari, u barcha xalqlar o`rtasida islohot va ochiqlik samarasini adolatli taqsimlashni talab qildi. XKP rahbari

⁶王小鲁. 樊纲. 中国收入差距的走势和影响因素分析. Wángxiǎolǔ. Fángāng. Zhōngguó shōurù chājù de zǒushi hé yǐngxiǎng yīnsù fēnxī (Ван Сяолу, Фань Ган.

Xitoydadaromad buzilishiga ta`sir qiluvchi tendentsiyalar va omillarini ta`hlil qilish // 经济研究 Jīngjì yánjiū Iqtisodiy tadqiqotlar. 2005 (10) ; 24-36

⁶Национальное бюро статистики КНР <http://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01&zb=A0A01&sj=2015>

ta'kidlaganidek, partiya o'z ishiga, shu jumladan, chet ellik mutaxassislarga va nodavlat shaxslarga ko'plab odamlarni jalb qilmoqchi.

Xitoy Xalq Respublikasi hukumati hozirgi davrda ham qashshoqlik darajasini pasaytirish uchun ko'plab ishlarni amalga oshirmoqda.

Jadval 2.

XXRdagi 2015 yilda eng kam ish haqi belgilangan hududlar nomi va ish qahi summasi, yuanda⁷

Provinsiya va avtonom rayonlar	Eng kam ish haqi (yuan)
Shanxay	2020
Guandun	1895
Tyanjin	1850
Chjetzyan	1650
Tzyansu	1630
Pekin	1720
Sinjan Uyg'ur	1520
Shandun	1500
Yunan	1420
Sichuan	1400
Tszyansi	1390
Gansu	1350
Ichki Mongoliya	1350
Futzyan	1320
Xebye	1320
Girin	1120
Xubey	1300
Lyaonin	1300
Ninsia-Xuy	1300
Shansi	1290
Shensi	1280
Sinxay	1270
Xunan	1390

⁷饶风·新时期就业和社会保障问题研究(Xīn shíqí jiùyè hé shèhuì bǎozhàng wèntí yánjiū. Zamonaviy Xitoyda bandlik va ijtimoiy xavfsizlikni o'rganish). Xīnán: 西南财经大学出版社 Janubi-g'arbiy Moliya va iqtisodiyot universiteti matbuoti, 2010. –55b.

Anxoy	1260
Chuntisn	1250
Guychjou	1250
Xenan	1400
Guansi Chuan	1400
Tibet	1400
Heylongjia	1160
Xaynan	1390

Yoqorida keltirilgan 2.-jadvalda mamlakatning sharqiy qismdagi eng kam ish haqining, nisbatan yuqoriroq ekanligini guvohi bo'lamiz va mamlakatdagi eng kam ish haqi g'arbiy va markaziy rayonlar hissasiga to'g'ri kelishini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Undan tashqari, Xitoy Xalq Respublikasi Milliy statistika byurosi hisobotiga ko'ra, eng kam ish haqi siyosati quyidagi yo'nalishlarda daromad taqsimotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda:⁸ Xitoy Xalq respublikasida turmush darajasini baholashning eng muhim usuli - "xiaokan" - o'rtacha taraqqiyot darajasi hisoblanadi. Xiaokang konsepsiyasi 1979 yilda Deng Xiaoping tomonidan ilgari surilgan, 1982-yilda XII Kongressda KXS XX asrning oxirida "xiaokang" darajasiga o'tish butun aholi uchun "oziq-ovqat va issiqlik" bilan ta'minlash uchun turmush darajasini oshirishdan iborat bo'lgan "uch bosqichli iqtisodiy strategiya" g'oyasini ilgari surdi. Boshqacha aytganda, Xiaokang Xitoyning zamonaviylashtirilishi deb ham yuritiladi.⁹

Shunday qilib, Xitoy Xalq Respublikasida aholi daromadlarining zamonaviy shakllanishiga ko'plab omillar ta'sir qilgan, ularning rivojlanishida hukumat aholini qo'llab quvvatlagan va turli sohalarga turlicha imtiyozlarni taqdim etilganligi bilan bog'liqdir.

REFERENCES

1. Национальное бюро статистики КНР <http://data.stats.gov.cn/easyquery.htm?cn=C01>
2. Завершилось совещание 16+1. // http://www.mfa.gov.lv/ru/sotrud_nichestva_stran-centralnoj-i-vostochnoj-evropy-i-kitaya. – Дата доступа: 02.02.2017.
3. 邓大松, 林毓铭, 谢圣远社会保障理论与实践发展研究(Dèng Dàsōng, Lín Yùmíng, Xiè Shèngyuǎn. Shèhuì bǎozhàng lǐlùn yǔ shíjiàn fāzhǎn yánjiū. Ijtimoiy xavfsizlik nazariyasi va amaliy tadqiqotlar). –北京 Pekin: 人民出版社 Rénmín chūbǎn shè Xalq nashriyoti, 2007.67b.35. 王胜三, 陈胜德主编. 一带一路列国志[M].北京: 人民出版社, 2015.
4. Селищев А.С., Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке.- СПб.: Издательство «Питер». 2004
5. 李培林, 朱庆芳中国小康社会 (Lǐ péilín, zhū qìng fāng zhōngguó xiǎokāng shèhuì Ли Пэйлинь, Чжу Цифанн). Xitoyning farovon jamiyati - Xiaokang. [M] 社会科学文献出版社 Ijtimoiy fanlar adabiyoti nashriyoti 2003 yil
6. Жизнь в Китае // <http://emigranto.ru/strany-azii/kitai/zhizn-v-kitae.html/>
7. Минимальная и средняя зарплата в Китае // <http://visasam.ru/emigration/asia/uroven-zhizni-v-kitae.html>

⁸中华人民共和国国家统计局 Национальное бюро статистики КНР, 中国统计年 Китайский годовой статистический справочник 2015 // : <http://www.stats.gov.cn/tjsj/ndsj/2015/indexch>

⁹李培林, 朱庆芳中国小康社会 (Lǐ péilín, zhū qìng fāng zhōngguó xiǎokāng shèhuì Ли Пэйлинь, Чжу Цифанн). Xitoyning farovon jamiyati - Xiaokang. [M] 社会科学文献出版社 Ijtimoiy fanlar adabiyoti nashriyoti 2003 yil

8. С. А. Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2022.
9. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In *Resent Scientific Investigation* (pp. 69-73).
10. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (р. 361).
11. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевленных существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
12. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
13. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
15. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
16. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
17. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
18. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
19. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
20. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
21. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
22. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
23. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019